

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES



huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2026-yil 1-son

VOLUME 10 / ISSUE 1 / 2026

DOI: [HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.ROLS.2025.10.1](https://dx.doi.org/10.51788/TSUL.ROLS.2025.10.1)

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: [HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.ROLS](https://dx.doi.org/10.51788/TSUL.ROLS)



Crossref

Content
Registration

**MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK
UNIVERSITETI**

"Yuridik fanlar axborotnomasi –
Вестник юридических наук – Review
of law sciences" huquqiy ilmiy-amaliy
jurnali O'zbekiston matbuot va axborot
agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda
0931-sonli guvohnoma bilan davlat
ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy
ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi
jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat
yuridik universitetiga tegishli. Barcha
huquqlar himoyalangan. Jurnal material-
laridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish
muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Nashr bo'yicha mas'ul:

O. Choriyev

Muharrirlar:

E. Mustafayev,
Y. Yarmolik,
M. Sharifova,
Sh. Beknazarova,
X. Yuldasheva

Musahhih:

M. Tursunov

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar,
Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Nashriyot litsenziyasi

№ 174625, 29.11.2023-y.

Jurnal 2026-yil 25-martda
bosmaxonaga topshirildi.
Qog'oz bichimi: A4.
Shartli bosma tabog'i: 23,5
Adadi: 100. Buyurtma: № 46.

Bosmaxona litsenziyasi

29.11.2023 № 174626

TDYU bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko'chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

TAHRIR HAY'ATI**BOSH MUHARRIR**

B. Xodjayev – Toshkent davlat yuridik universiteti rektori, yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI

Z. Esanova – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

MAS'UL MUHARRIR

O. Choriyev – Toshkent davlat yuridik universiteti Tahririy-nashriyot markazi direktori

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI

Y. Kanyazov – Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti direktori, yuridik fanlar nomzodi

J. Tashkulov – Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti bo'lim boshlig'i, yuridik fanlar doktori, professor

U. To'xtasheva – Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori o'rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

M. Yasan – Balikesir universiteti Huquq fakulteti professori (Turkiya)

S. Ma'mun – Islam Negeri universiteti o'qituvchisi (Indoneziya)

Sh. Asadov – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Yuridik ta'lim va sud-ekspertiza boshqarmasi boshlig'i, yuridik fanlar doktori, professor

I. Ergashev – Toshkent davlat yuridik universiteti Ma'muriy va moliya huquqi sho'basi professori, yuridik fanlar doktori

J. Nematov – Toshkent davlat yuridik universiteti Ma'muriy va moliya huquqi sho'basi professori, yuridik fanlar doktori

M. Aminjonova – O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi Qonunchilik ijrosi ustidan nazoratni tashkil etish kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar doktori

M. Raximov – Toshkent davlat yuridik universiteti Tadqiqot markazi boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

I. Djurayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Sud hokimiyati, advokatura va huquqni muhofaza qiluvchi organlar sho'basi mudiri, yuridik fanlar doktori, professor

O. Narzullayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Ekologiya huquqi sho'basi professori, yuridik fanlar doktori

F. Maxmudov – Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti direktori o'rinbosari, yuridik fanlar doktori, dotsent

M. Kadirova – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat-protsessual huquqi sho'basi professor v.b., yuridik fanlar doktori

I. Yakubova – Toshkent davlat yuridik universiteti Intellektual mulk huquqi sho'basi professor v.b., yuridik fanlar doktori

A. Muxamedjanov – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va inson huquqlari sho'basi professori, yuridik fanlar doktori

N. Niyazova – Toshkent davlat yuridik universiteti O'zbek tili va adabiyoti sho'basi professori, pedagogika fanlari nomzodi

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Вестник юридических наук – Yuridik fanlar axborotnomasi – Review of Law Sciences» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 0931.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:
О. Чориев

Редакторы:

Э. Мустафаев,
Е. Ярмолик,
М. Шарифова,
Ш. Бекназарова,
Х. Юлдашева

Корректор:

М. Турсунов

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1385.

Издательская лицензия

от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию
25.03.2026.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 23,5. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 46.

Лицензия типографии

от 29.11.2023 № 174626.

Отпечатано в типографии

Ташкентского государственного
юридического университета.

100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, дом 37.

© Ташкентский государственный
юридический университет

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Б. Ходжаев – ректор Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

З. Эсанова – проректор Ташкентского государственного юридического университета по научной работе и инновациям, доктор юридических наук, профессор

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

О. Чориев – директор Редакционно-издательского центра Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

Е. Каньязов – директор Института переподготовки и повышения квалификации юридических кадров при Министерстве юстиции, кандидат юридических наук

Ж. Ташкулов – заведующий отделом Института государства и права Академии наук, доктор юридических наук, профессор

У. Тухташева – заместитель директора Агентства по противодействию коррупции Республики Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

М. Ясан – профессор юридического факультета Университета Балыкесир (Турция)

С. Маъмун – преподаватель Исламского государственного университета (Индонезия)

Ш. Асадов – начальник управления юридического образования и судебной экспертизы Министерства юстиции Республики Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

И. Эргашев – профессор сектора административного и финансового права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

Ж. Нематов – профессор сектора административного и финансового права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

М. Аммижонов – доцент кафедры организации контроля за исполнением законодательства Правоохранительной академии Республики Узбекистан, доктор юридических наук

М. Рахимов – начальник Центра исследований Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам

И. Джураев – заведующий сектором судебной власти, адвокатуры и правоохранительных органов Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

О. Нарзуллаев – профессор сектора экологического права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

Ф. Махмудов – заместитель директора Института переподготовки и повышения квалификации юридических кадров при Министерстве юстиции, доктор юридических наук, доцент

М. Кадирова – и.о. профессора сектора уголовно-процессуального права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

И. Якубова – и.о. профессора сектора права интеллектуальной собственности Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

А. Мухамеджанов – профессор сектора международного права и прав человека Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

Н. Ниязова – профессор сектора узбекского языка и литературы Ташкентского государственного юридического университета, кандидат педагогических наук

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

“Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences” legal scientific-practical journal was registered by Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020, with certificate number 0931.

The journal is included in the list of journals of the Supreme Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan. Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of materials of the journal are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:

O. Choriev

Editors:

E. Mustafaev,
E. Yarmolik,
M. Sharifova,
Sh. Beknazarova,
Kh. Yuldasheva

Proofreader:

M. Tursunov

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Publishing department address:

100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Subscription index: 1385.

Publishing license

№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 25.03.2026.

Paper size: A4.

Cond.p.f: 23,5.

Units: 100. Order: № 46.

Printing house license

№ 174626, 29.11.2023.

Published in the Printing house of
Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city, Sayilgoh street, 37.

© Tashkent State University of Law

EDITORIAL BOARD

EDITOR-IN-CHIEF

B. Xodjaev – Rector of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

Z. Esanova – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

EXECUTIVE EDITOR

O. Choriev – Director of the Publishing and Editorial Center of Tashkent State University of Law

MEMBERS OF EDITORIAL BOARD

Y. Kanyazov – Director of the Institute for Retraining and Advanced Training of Legal Personnel under the Ministry of Justice, Candidate of Legal Sciences

J. Tashkulov – Head of the Department of the Institute of State and Law of the Academy of Sciences, Doctor of Law, Professor

U. Tuxtasheva – Deputy Director of the Anti-Corruption Agency, Doctor of Law, Professor

M. Yasan – Professor of the Faculty of Law, Balikesir University (Turkey)

S. Ma'mun – Lecturer at Universitas Islam Negeri (Indonesia)

Sh. Asadov – Head of the Department of Legal Education and Forensic Examination of the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor

I. Ergashev – Professor of the Department of Administrative and Financial Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

J. Nematov – Professor of the Department of Administrative and Financial Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

M. Aminjonova – Associate Professor of the Department of Organization of Control over the Execution of Legislation of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law

M. Rakhimov – Head of the Research Center of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

I. Djuraev – Head of the Department of Judiciary, Advocacy and Law Enforcement Agencies of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

O. Narzullaev – Professor of the Department of Environmental Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

F. Makhmudov – Deputy Director of the Institute for Retraining and Advanced Training of Legal Personnel under the Ministry of Justice, Doctor of Law, Associate Professor

M. Kadirova – Acting Professor of the Department of Criminal Procedure Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

I. Yakubova – Acting Professor of the Department of Intellectual Property Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

A. Mukhamedjanov – Professor of the Department of International Law and Human Rights of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

N. Niyazova – Professor of the Department of Uzbek Language and Literature of Tashkent State University of Law, Candidate of Pedagogical Sciences

MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA’MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

11 **ALLAMBAYEV JAVLONBEK RUSTAMOVICH**

Ma’muriy huquqbuzarlik to’g’risidagi ishlarni ko’rib chiqishda ma’muriy ogohlantirish jazosini qo’llash istiqbollari

21 **SULTANOV RAHMON AVALBOYEVICH**

Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda davlat boshqaruvini raqamlashtirish

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

28 **G’ULOMOV AKMALJON SHUKURILLAYEVICH**

Yangi Fuqarolik kodeksida “farqlash qobiliyati”ni mustahkamlash zaruriyati

34 **INOYATOVA SOXIBA FAZILOVNA**

Fuqarolik huquqlarini himoya qilishning fuqarolik huquqi kategoriyasi sifatidagi tizimli talqini

50 **MAMADIYEV ABROR ABDURAXMON O’G’LI**

Kompensatsiyaning fuqarolik-huquqiy tabiatiga oid ilmiy qarashlar

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI. HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

60 **ODILOVA SITORA BOBIR QIZI**

Sud amaliyotida protsessual muddatlar buzilishi va sud qarorlarini bekor qilish

12.00.06 – TABIIY RESURSLAR HUQUQI. AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

69 **NISHONOV ABDULLOH UBAYDULLOH O’G’LI**

Muhofaza zonalarini hududidagi yer uchastkalaridan foydalanishning huquqiy tartibini takomillashtirish

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

79 **JUMANIYOZOVA ZARNIGOR MAXAMMADI QIZI**

Odami savdosi jinoyatining obyekti va predmeti: jinoyat-huquqiy tahlil

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

90 **MADAMINOVA DURDONA ISKANDAROVNA**

Migratsion jarayonlarni huquqiy tartibga solish muammolari: AQSH misolida

105 **MUSAYEV DJAMALIDDIN KAMALOVICH**

Giyohvandlikka qarshi kurashish xavfsizligi strategiyalarida sun’iy intellektning innovatsion algoritmlari

113 **MAXAMATOV MAXMUD MAXAMATAMINOVICH**

Shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilishning zamonaviy tendensiyalari va O’zbekiston qonunchiligini takomillashtirish istiqbollari

122 **XODJAYEVA AZIZA BAXTIYOROVNA**

Barqaror qishloq xo’jaligini xalqaro huquqiy tartibga solish: O’zbekistonda FAO va IFAD modeli

131 **XOLMIRZAYEVA SHOXISTA ARZIQUL QIZI**

Migratsiya bo’yicha xalqaro tashkilot doirasida noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish masalalari

12.00.12 – KORRUPSIYA MUAMMOLARI

- 139 **MIRZAYEV RAHMATULLA IBODULLAYEVICH**
Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida sun'iy intellektni joriy etishning tashkiliy omillari
- 150 **MUSASHAYXOV KARIMJON XUSANXANOVICH**
Professional sport sohasidagi ma'muriy boshqaruv jarayonlarida korrupsiyaviy omillar: muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari
- 159 **AHMADOV ALIMARDON AXMADOVICH**
Aktivlarni qaytarish va korrupsiyani idrok qilish indeksi o'rtasidagi bog'liqlik: Yaponiya tajribasi hamda O'zbekistonda qo'llash imkoniyati

12.00.13 – INSON HUQUQLARI

- 175 **MUHITDINOVA FIRYUZA ABDURASHIDOVNA, MAMASOLIYEV SAIDAKMAL SAIDAKBAROVICH**
Inson huquqlari avlodlari nazariyasining rivojlanishi: an'anaviy huquqlardan raqamli huquqlarga o'tish masalalari
- 186 **ODILOV JAMSHID BOBIRMIRZO O'G'LI**
Inson ekologik huquqlarini ta'minlashning xalqaro huquqiy jihatlari
-
- 195 **RUZINAZAROV SHUXRAT NURALIYEVICH**
Ilm va adolatga sodiqligi bilan e'zoz topgan huquqshunos (Mamlakat Vosiqovaning yorqin xotirasiga bag'ishlanadi)

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО.
ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

- 11 **АЛАМБАЕВ ЖАВЛОНБЕК РУСТАМОВИЧ**
Перспективы применения предупреждения как меры административного наказания при рассмотрении дел об административных правонарушениях
- 21 **СУЛТАНОВ РАХМОН АВАЛБЕКОВИЧ**
Цифровизация государственного управления в обеспечении продовольственной безопасности

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО.
МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

- 28 **ГУЛОМОВ АКМАЛЖОН ШУКУРИЛЛАЕВИЧ**
Необходимость закрепления «способности к различению» в новом Гражданском кодексе
- 34 **ИНОЯТОВА СОХИБА ФАЗИЛОВНА**
Системное осмысление защиты гражданских прав как категории гражданского права
- 50 **МАМАДИЕВ АБРОР АБДУРАХМОН УГЛИ**
Научные взгляды на гражданско-правовую природу компенсации

12.00.04 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО.
ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. АРБИТРАЖ И МЕДИАЦИЯ

- 60 **ОДИЛОВА СИТОРА БОБИР КИЗИ**
Нарушение процессуальных сроков в судебной практике и отмена судебных решений

12.00.06 – ПРИРОДОРЕСУРСНОЕ ПРАВО. АГРАРНОЕ ПРАВО. ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПРАВО

- 69 **НИШОНОВ АБДУЛЛОХ УБАЙДУЛЛОХ УГЛИ**
Совершенствование правового режима использования земельных участков в границах охранных зон

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

- 79 **ЖУМАНИЕЗОВА ЗАРНИГОР МАХАММАДИ КИЗИ**
Объект и предмет преступления торговли людьми: уголовно-правовой анализ

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

- 90 **МАДАМИНОВА ДУРДОНА ИСКАНДАРОВНА**
Проблемы правового регулирования миграционных процессов: на примере США
- 105 **МУСАЕВ ДЖАМАЛИДДИН КАМАЛОВИЧ**
Инновационные алгоритмы искусственного интеллекта в стратегиях антинаркотической безопасности
- 113 **МАХАМАТОВ МАХМУД МАХАМАТАМИНОВИЧ**
Современные тенденции защиты персональных данных и перспективы совершенствования законодательства Узбекистана
- 122 **ХОДЖАЕВА АЗИЗА БАХТИЁРОВНА**
Международно-правовое регулирование устойчивого сельского хозяйства: модель FAO и IFAD в Узбекистане
- 131 **ХОЛМИРЗАЕВА ШОХИСТА АРЗИКУЛ КИЗИ**
Вопросы противодействия незаконной миграции в рамках Международной организации по миграции

12.00.12 – ПРОБЛЕМЫ КОРРУПЦИИ

139 **МИРЗАЕВ РАХМАТУЛЛА ИБОДУЛЛАЕВИЧ**

Организационные факторы внедрения искусственного интеллекта в сфере противодействия коррупции

150 **МУСАШАЙХОВ КАРИМЖОН ХУСАНХАНОВИЧ**

Коррупционные факторы в процессах административного управления в сфере профессионального спорта: проблемы и пути их устранения

159 **АХМАДОВ АЛИМАРДОН АХМАДОВИЧ**

Взаимосвязь между возвратом активов и индексом восприятия коррупции: опыт Японии и перспективы применения для Узбекистана

12.00.13 – ПРАВА ЧЕЛОВЕКА

175 **МУХИТДИНОВА ФИРЮЗА АБДУРАШИДОВНА, МАМАСОЛИЕВ САИДАКМАЛ САИДАКБАРОВИЧ**

Развитие теории поколений прав человека: проблемы перехода от традиционных прав к цифровым

186 **ОДИЛОВ ЖАМШИД БОБИРМИРЗО УГЛИ**

Международно-правовые аспекты обеспечения экологических прав человека

195 **РУЗИНАЗАРОВ ШУХРАТ НУРАЛИЕВИЧ**

Юрист, удостоенный признания за преданность науке и справедливости (посвящается светлой памяти Мамлакат Восиковой)

CONTENTS

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCIAL AND CUSTOMS LAW

- 11 **ALLAMBAEV JAVLONBEK RUSTAMOVICH**
Prospects for the application of an administrative warning penalty when considering cases of administrative offenses
- 21 **SULTANOV RAHMON AVALBOYEVICH**
Digitalization of public administration in ensuring food security

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

- 28 **GULOMOV AKMALJON SHUKURILLAYEVICH**
The necessity of strengthening “Discernment capacity” in the new Civil Code
- 34 **INOYATOVA SOKHIBA FAZILOVNA**
Systematic reflection of civil rights protection as a category of civil law
- 50 **MAMADIEV ABROR ABDURAKHMOM UGLI**
Scientific views on the civil-legal nature of compensation

12.00.04 – CIVIL PROCEDURAL LAW. ECONOMIC PROCEDURAL LAW. ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

- 60 **ODILOVA SITORA BOBIR KIZI**
Violation of procedural time limits in judicial practice and the annulment of court decisions

12.00.06 – THE LAW OF NATURAL RESOURCES. AGRARIAN LAW. ENVIRONMENTAL LAW

- 69 **NISHONOV ABDULLOH UBAYDULLOH UGLI**
Improvement of the legal procedure for the use of land plots in the territory of protected zones

12.00.08 – CRIMINAL LAW. CRIMINAL-EXECUTIVE LAW

- 79 **JUMANIYOZOVA ZARNIGOR MAKHAMMADI KIZI**
The object and subject of human trafficking: a criminal-legal analysis

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

- 90 **MADAMINOVA DURDONA ISKANDAROVNA**
Problems of legal regulation of migration processes: the example of the USA
- 105 **MUSAEV DJAMALIDDIN KAMALOVICH**
Innovative artificial intelligence algorithms in anti-drug security strategies
- 113 **MAKHAMATOV MAKHMUD MAKHAMATAMINOVICH**
Modern trends in personal data protection and prospects for improving the legislation of Uzbekistan
- 122 **KHODJAEVA AZIZA BAKHTIYOROVNA**
International legal regulation of sustainable agriculture: the FAO and IFAD model in Uzbekistan
- 131 **XOLMIRZAYEVA SHOHKISTA ARZIQL KIZI**
Issues of combating illegal migration within the framework of the international organization for migration

12.00.12 – CORRUPTION PROBLEMS

- 139 **MIRZAEV RAHMATULLA IBODULLAYEVICH**
Organizational factors of implementing artificial intelligence in the field of anti-corruption
- 150 **MUSASHAYKHOV KARIMJON KHUSANKHANOVICH**
Corruption factors in administrative management processes in the field of professional sports: problems and ways to eliminate them
- 159 **AHMADOV ALIMARDON AKHMADOVICH**
The nexus between asset recovery and corruption perceptions index: Japan’s experience and implications for Uzbekistan

12.00.13 – HUMAN RIGHTS

- 175 **MUKHITDINOVA FIRYUZA ABDURASHIDOVNA, MAMASOLIYEV SAIDAKMAL SAIDAKBAROVICH**
Development of the human rights generation theory: issues of transition from traditional rights to digital rights
- 186 **ODILOV JAMSHID BOBIRMIRZO UGLI**
International legal aspects of ensuring human environmental rights
-
- 195 **RUZINAZAROV SHUKHRAT NURALIYEVICH**
A Jurist Honored for Her Commitment to Science and Justice
(Dedicated to the bright memory of Mamlakat Vosiqova)

Kelib tushgan / Получено / Received: 26.01.2026
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 26.02.2026
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 25.03.2026

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2025.10.1./BGTQ1879>
UDC: 347.1(045)(575.1)

YANGI FUQAROLIK KODEKSIDA “FARQLASH QOBILIYATI”NI MUSTAHKAMLASH ZARURIYATI

G‘ulomov Akmaljon Shukurillayevich,
Sh. Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti professori,
yuridik fanlar nomzodi

ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-1521-3394>
e-mail: gulomovakmaljon@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada fuqarolik huquqining subyekti sifatida fuqaro muomala layoqatining farqlash qobiliyati bilan bog‘liqligi yuzasidan izlanishlar olib borilgan. Muallif fuqaro muomala layoqatiga ega bo‘lishining muhim shartlaridan biri uning o‘z harakatlari ahamiyatini anglash va ularni boshqara olish qobiliyati (farqlay olish qobiliyati)ga ega bo‘lishi ekanini, jismoniy shaxslar fuqarolik-huquqiy munosabatlarda o‘z harakatlarining mazmunini tushungan, boshqargan va ularning ahamiyatini farqlagan holda qatnashishini ta’kidlagan. Shuningdek, fuqarolarning muomala layoqatiga ega bo‘lishida farqlash qobiliyatini inkor qiladigan bir necha holatlarni ajratib ko‘rsatgan. Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Fuqarolik kodeksida aynan mana shu farqlash qobiliyati haqida aniq norma belgilanmagani aniqlanib, bu masala chet mamlakatlar fuqarolik qonunchiligida qanday aks etganini ko‘rib chiqilgan. Fuqarolarning muomala layoqatini o‘zida mustahkamlagan fuqarolik qonun hujjatlari normalari, milliy va chet el sivilist olimlarining ilmiy-nazariy asarlari va xulosalari qiyosiy huquqshunoslik, tahlil, induksiya hamda deduksiya metodlari asosida o‘rganilgan. Muallif xulosada yangi Fuqarolik kodeksida muomala layoqati baholanayotgan barcha shaxslar tavsiflari aniq belgilab qo‘yilishi, farqlash qobiliyati nima uchun qonunchilikda mustahkamlanishi kerakligini ilmiy asoslab, o‘z takliflarini ilgari surgan.

Kalit so‘zlar: muomala layoqati, farqlash qobiliyati, kichik yoshdagi bolalar, to‘la hajmdagi muomala layoqati, ruhiy kasalliklarga chalingan shaxslar, aqli zaiflik, alkogol yoki giyohvand moddalarni suiiste‘mol qilish

НЕОБХОДИМОСТЬ ЗАКРЕПЛЕНИЯ «СПОСОБНОСТИ К РАЗЛИЧЕНИЮ» В НОВОМ ГРАЖДАНСКОМ КОДЕКСЕ

Гуломов Акмалжон Шукуриллаевич,
кандидат юридических наук,
профессор Самаркандского государственного
университета имени Ш. Рашидова

Аннотация. В статье исследуется взаимосвязь дееспособности гражданина как субъекта гражданского права со способностью к различению. Автор обосновывает, что одним из важнейших условий наличия у гражданина дееспособности является его способность осознавать значение своих действий и руководить ими (способность к различению),

подчёркивая, что физические лица участвуют в гражданско-правовых отношениях, понимая содержание своих действий, управляя ими и различая их юридическое значение. Также выделяется ряд обстоятельств, исключающих наличие способности к различению при определении дееспособности граждан. В ходе исследования установлено, что в действующем Гражданском кодексе Республики Узбекистан отсутствует чёткая норма, прямо закрепляющая данную способность, в связи с чем рассматривается, каким образом данный вопрос урегулирован в гражданском законодательстве зарубежных государств. Нормы гражданского законодательства, закрепляющие дееспособность граждан, а также научно-теоретические труды и выводы отечественных и зарубежных цивилистов проанализированы с использованием методов сравнительно-правового анализа, анализа, индукции и дедукции. В заключение автор научно обосновывает необходимость чёткого определения характеристик всех лиц, в отношении которых оценивается дееспособность, в новом Гражданском кодексе, а также необходимость нормативного закрепления способности к различению, и выдвигает соответствующие предложения.

Ключевые слова: дееспособность, способность к различению, несовершеннолетние, полная дееспособность, лица с психическими расстройствами, умственное нарушение, злоупотребление спиртными напитками или наркотическими веществами

THE NECESSITY OF STRENGTHENING “DISCERNMENT CAPACITY” IN THE NEW CIVIL CODE

Gulomov Akmaljon Shukurillayevich,
Professor of Samarkand State University
named after Sh. Rashidov,
Candidate of Legal Sciences

Abstract. *The article examines the relationship between a citizen’s legal capacity as a subject of civil law and their ability to differentiate. The author emphasizes that one of the important conditions for a citizen to have legal capacity is the ability to understand the significance of their actions and manage them (the ability to distinguish) and that individuals participate in civil legal relations, understanding the meaning of their actions, managing them, and distinguishing their significance. He also identified several cases that negate the ability of citizens to differentiate in their legal capacity. The study revealed that the current Civil Code of the Republic of Uzbekistan does not specify a specific norm regarding this ability to distinguish and examined how this issue is reflected in the civil legislation of foreign countries. The norms of civil legislation, scientific and theoretical works, and conclusions of national and foreign civilist scholars, which strengthen the legal capacity of citizens, were studied on the basis of comparative jurisprudence, analysis, induction, and deduction methods. In the conclusion, the author scientifically substantiated why the new Civil Code should clearly define the characteristics of all persons whose legal capacity is assessed and why the ability to distinguish should be enshrined in legislation and put forward his proposals.*

Keywords: *legal capacity, capacity for discernment, minors, full legal capacity, persons with mental disorders, intellectual disabilities, abuse of alcohol or narcotic substances*

Kirish

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad fuqarolarning huquqi va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish, ularning orzu-intilishlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash,

xavfsiz hayot kechirishini ta‘minlashdir. O‘zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev (2022) bu borada: “Inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida belgilanishi lozim. Hech kimning unutilishga haqqi yo‘q –

qonun talablari va inson huquqlari biz uchun oliy qadriyat”, – deya ta’kidlagan.

Ma’lumki, inson huquqlarining ishonchli himoyasi qonunlar, jumladan, fuqarolik qonun hujjatlari orqali ta’minlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi F-5464-sonli farmoyishida (President of the Republic of Uzbekistan, 2019) *fuqarolik qonunchiligi normalarini tizimlashtirish va unifikatsiya qilish*, ularning eng namunali xorijiy amaliyotlar bilan uyg‘unligini ta’minlash hozirgi kunning kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb masalalari sifatida belgilangan.

Fuqarolik qonunchiligiga muvofiq, huquq va muomala layoqati fuqarolik huquqining subyektini xarakterlaydigan eng muhim sifatlardan sanaladi. Fuqarolik kodeksi shaxsning huquq layoqatiga ega bo‘lishi uchun qandaydir shartlarni o‘zida mustahkamlamaydi. Bolaning onadan to‘liq ajralgan va tirik holda tug‘ilishi huquq layoqati vujudga kelishining yagona shartidir. Muomala layoqati – shaxsning o‘z harakatlari orqali majburiyatlarni zimmasiga olish va huquqlarga ega bo‘lish qobiliyatidir. Bu layoqat ikki turga bo‘linadi: huquqiy bitimlarni amalga oshirish va qonunga zid harakatlari uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olish layoqati (Helvacı, 2013). Ammo shaxs muomala layoqatiga ega bo‘lishi uchun u bir qator shartlarga javob berishi kerak.

Fuqarolarning muomala layoqatiga ta’sir qiladigan qator misollarni ko‘rib chiqsak. Jumladan, yuqori qavatda yashovchi to‘rt yoki besh yoshli bola yuqoridan pastga qarasa tushib ketishi mumkinligini biladimi? Ruhiy kasalliklar kasalxonasida davolanayotgan fuqarolarning barchasini muomalaga layoqatsiz deya olamizmi yoki muomalaga layoqatlimi? Yoxud spirtli ichimliklarni iste’mol qilish natijasida fuqaro sarxushlik holatida ma’lum bir harakatlarni amalga oshiradi, biroq ertasi kuni xotirlay olmaydi. U sarxushlik holatida muomalaga layoqatsiz bo‘lganmi?

FK 121-moddasi 1-qismiga (Republic of Uzbekistan, 1997) ko‘ra, garchi muomalaga layoqatli bo‘lsa-da, biroq bitim tuzish vaqtida o‘z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan holatda bo‘lgan fuqaro tomonidan tuzilgan bitim shu fuqaroning yoki huquqlari yoxud qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlari bunday bitimni tuzish natijasida buzilgan boshqa shaxslarning da’vosi bo‘yicha sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Yoinki, “Suyunchi” filmidagi Anzirat buyining nabiralari o‘z harakatlarining farqiga yetganlarida o‘sha yerda futbol o‘ynagan bo‘larmidi?

Yuqorida keltirilgan misollardan ko‘rinadiki, bu yerda shaxsning muomalaga layoqatsizlik holati o‘rtaga chiqmoqda va ular sodir etgan harakatlarining farqiga bormaydi. Jismoniy shaxslar fuqarolik-huquqiy munosabatlarda o‘z harakatlarining mazmunini tushungan, boshqargan va ularning ahamiyatini farqlagan holda qatnashadilar (*keyingi o‘rinlarda “farqlash qobiliyati” deb yuritiladi*).

Farqlash qobiliyati – insonning aql va mantiqqa muvofiq harakat qilish qobiliyatidir. Boshqacha aytganda, bu insonning o‘z xatti-harakati oqibatlarini oldindan ko‘ra bilish va shunga tayanib harakat qilish qobiliyatidir (Oguzman & Barlas, 2022, p. 177). Farqlash qobiliyatiga ega bo‘lmagan shaxs tomonidan tuzilgan bitim mutlaqo haqiqiy emas (Helvacı, 2013, p. 585). Bundan tashqari, ta’kidlash lozimki, bitim haqiqiy bo‘lishi uchun inson faqat farqlash qobiliyatiga ega bo‘lishi yetarli emas; shuningdek, u voyaga yetgan, muomala layoqati cheklanmagan bo‘lishi kerak (Oguzman & Barlas, 2022, p. 177). Farqlash qobiliyati yaxshini yomondan, to‘g‘rini noto‘g‘ridan ajrata olish kuchidir.

Metodlar

Mazkur mavzuni o‘rganishda fuqarolarning muomala layoqatini o‘zida mustahkamlagan fuqarolik qonun hujjatlari normalari, bu masalada vatanimiz va chet el sivilist

olimlarining ilmiy-nazariy asarlari va ularning mazkur masala yuzasidan xulosalari hamda qiyosiy huquqshunoslik, tahlil, induksiya va deduksiya metodlaridan maqsadli foydalanildi.

Natijalar

O'zbekiston Respublikasining amaldagi Fuqarolik kodeksida farqlash qobiliyati haqida aniq norma belgilanmagan. Chet mamlakatlar fuqarolik qonunchiligida bu masalaga alohida e'tibor qaratilganini ko'rish mumkin. Masalan, Turkiya Fuqarolik kodeksining 10- va 13-moddalarida shaxsning muomala layoqatiga ega bo'lishining *uch sharti* haqida to'xtalib o'tilgan: farqlash qobiliyatiga ega bo'lish; voyaga yetish (ma'lum bir yoshga to'lish, nikoh tuzish, emansipatsiya); muomala layoqati cheklab qo'yilmagan bo'lishi kerak (Republic of Turkey, 2001, p. 2).

Xo'sh, nima uchun farqlash qobiliyati qonunchilikda mustahkamlanishi kerak? Muomala layoqatiga ega bo'lishning eng muhim shartlaridan biri farqlash qobiliyatiga ega bo'lishdir. Agar kishi farqlash qobiliyatiga ega bo'lmasa u voyaga yetgan bo'lishiga qaramay umuman muomalaga layoqatsiz shaxs hisoblanadi. Shuningdek, agar shaxs farqlash qobiliyatiga ega bo'lsa, voyaga yetmagan taqdirda ham ba'zi bitimlarni amalga oshirishi natijasida huquq va majburiyatlarning egasi bo'lishi mumkin. Masalan, FKning 27-moddasi ikkinchi qismiga ko'ra, o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar ota-onalari, farzandlikka oluvchilar va homiylarining roziligisiz quyidagilarni mustaqil ravishda amalga oshirishga haqli (Republic of Uzbekistan, 1997):

1) o'z ish haqi, stipendiyasi va boshqa daromadlarini tasarruf yetish;

2) fan, adabiyot yoki san'at asarining, ixtironing yoxud o'z intellektual faoliyatining qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa natijasi muallifi huquqini amalga oshirish;

3) qonunga muvofiq kredit muassasalariga omonatlar qo'yish va ularni tasarruf yetish;

4) mayda maishiy bitimlarni hamda boshqa bitimlarni tuzish.

FKning 22-moddasiga ko'ra, fuqaroning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo'lish va ularni amalga oshirish, o'zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqati (muomala layoqati) u voyaga yetgach, ya'ni o'n sakkiz yoshga to'lgach to'la hajmda vujudga keladi. Mazkur normada to'la hajmda muomala layoqatini nazarda tutgan holda uni ham qamrab olish doirasi qisqartirib bayon etilgan. Ya'ni to'la hajmda muomala layoqati fuqaro faqat 18 yoshga to'lishi bilan sodir bo'lmaydi. Shuningdek, normada farqlash qobiliyati haqida so'z ham yuritilmagan. To'liq muomala layoqati – fuqaroning o'z harakatlari orqali qonun bilan ruxsat etilgan har qanday mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlariga ega bo'lish, ularni amalga oshirish, har qanday majburiyatlarini o'z zimmasiga olish hamda bajarish, ya'ni o'zining huquqiy layoqatini to'liq amalga oshirish qobiliyatidir (Oguzman & Barlas, 2013, p. 105). Muomala layoqati ruhiy yetuklik darajasiga bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida yosh va ruhiy salomatlik bilan belgilanadi (Republic of Turkey, 2001, p. 30).

Voyaga yetish, ya'ni 18 yoshga to'lish va muomalaga layoqatining cheklab qo'yilmaganligi muomala layoqatiga ega bo'lishning obyektiv shakli bo'lsa, farqlash qobiliyatiga ega bo'lish esa tabiiy, biologik yoki psixologik jihatdan muomala layoqatini qo'lga kiritishning subyektiv shartidir (Republic of Turkey, 2001, p. 212). Bu shart huquq subyektlarining huquqiy munosabatlarda o'z zimmalariga shaxsan javobgarlikni olish holatini belgilab beradi. Shu sababli yangi Fuqarolik kodeksida *"Fuqarolarning muomala layoqati"* nomi ostida alohida modda mavjud bo'lishi va uning *birinchi qismi* quyidagi mazmunda bayon etilishi kerak: "Fuqaroning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo'lish va ularni amalga oshirish, o'zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqati

muomala layoqati hisoblanadi. Fuqarolarning muomala layoqati farqlash qobiliyatiga ega bo'lgach hamda voyaga yetgach vujudga keladi".

Muhokama

Farqlash qobiliyati – insonning oqilona va mantiqiy tarzda harakat qilish qobiliyatidir, boshqacha aytganda, bu insonning o'z harakatlari oqibatlarini oldindan ko'ra bilish va oldindan ko'ra bilishni talab qiladigan tarzda harakat qilish qobiliyatidir.

Fuqarolarning muomala layoqatiga ega bo'lishida quyidagilarni farqlash qobiliyatini inkor qiladigan holatlar sifatida ko'rsatish mumkin:

1. *Kichik yoshdagi bolalar.* Kichik yoshdagi bolalar deganda 14 yoshgacha bo'lganlar nazarda tutiladi. I. Zokirovning (2006, p. 85) fikricha, o'n to'rt yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar (kichik yoshdagi bolalar) to'la ravishda muomalaga layoqatsiz hisoblandilar. O'n to'rt yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar uchun bitimlarni ularning nomidan ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yoki vasiylari tuzadilar. H. Rahmonqulovning (1997, p. 118) fikricha, voyaga yetmagan fuqarolar uchun fuqarolik huquqlarini keltirib chiqarish, ya'ni ularga ega bo'lish va ularni amalga oshirish, majburiyatlarni olish va ularni bajarishga oid yuridik ahamiyatga ega bo'lgan harakatlarni voyaga yetmaganlar nomidan ularning qonuniy vakillari amalga oshiradilar. Masalan, kichik yoshdagi bolani operatsiya qilish uchun zarur ruxsatnoma qonuniy vakil tomonidan beriladi. Bundan asosiy maqsad ularning huquqlarini himoya qilishdir. Bundan tashqari, vakillar qonunga muvofiq kichik yoshdagi bolalar yetkazgan zarar uchun ham javobgar bo'ladilar. Farqlash qobiliyatiga ega bo'lmagan shaxs tomonidan tuzilgan qonuniy bitim mutlaqo haqiqiy emas.

2. *Ruhiy kasalligi mavjud shaxslar.* Ruhiiy kasallik deganda insonning hissiy, psixologik va ijtimoiy farovonligiga ta'sir qiluvchi turli holatlar tushuniladi. Ular yoshi, jinsi yoki kelib chiqishidan qat'i nazar, har kim-

ga ta'sir qilishi mumkin va ko'pincha ular o'zlarini boshqarishlari uchun professional kasb egalarining aralashuvi talab qilinadi. Ruhiiy kasal kishi o'z harakatlarini boshqara olmagan sababli farqlash qobiliyatiga ham ega bo'lmaydi. Shu sababli ruhiy kasallik amaldagi Fuqarolik kodeksiga (Republic of Uzbekistan, 1997) muvofiq fuqaroni muomalaga layoqatsiz deb topish asoslaridan sanaladi (30-modda). Shaxsan amalga oshirilishi kerak bo'lgan huquqlarni amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilish vakolati faqat huquq egasiga tegishli bo'lib, ba'zi hollarda huquq egasi zarar ko'rishni mumkin. Masalan, ruhiy kasallik tufayli farqlash qobiliyatiga ega bo'lmagan shaxs turmush o'rtog'idan ajralish to'g'risida qaror qabul qilish huquqiga ega emas. Biroq agar turmush o'rtog'i xiyonat qilsa, ruhiy kasal shaxsning qonuniy vakili (vasiysi) uning nomidan ajralish to'g'risida ish qo'zg'atishi mumkinligi qabul qilinadi. Xuddi shunday, agar er farqlash qobiliyatiga ega bo'lmagan ayolga juda yomon munosabatda bo'lsa, ayolning qonuniy vakili ajralish to'g'risida ish qo'zg'atish vakolatiga ega ekanligini qabul qilish kerak.

3. *Aqli zaiflik (tug'ilishdan, halokat natijasida, qarichilik).* Ruhiiy kasallik bilan birga, aqli zaiflik ham farqlash qobiliyatini inkor qiladigan omil sifatida nazarda tutiladi. Aqli zaiflik ruhiy kasallikdan farqli ravishda bir kasallik sifatida emas, balki ma'lum bir hodisa natijasida yoki keksalik sabab aqliy qobiliyatning zaiflashuvidan kelib chiqishi mumkin.

4. *Sarxushlik oqibatida.* Sarxushlik vaqtinchalik o'tib ketadigan holat bo'lib, spirtli ichimliklar yoki psixotrop moddalarni sui-iste'mol qilish ongli ravishda harakat qilish qobiliyatining yo'qotilishiga sabab bo'ladi. Bu farqlash qobiliyatini yo'qotishdan tashqari, manfaatdor shaxslarning arizasiga ko'ra, FKga muvofiq fuqaroning muomala layoqatini cheklashga ham sabab bo'ladi (31-modda).

5. *O'xshash sabablar.* Farqlash qobiliyatini yo'qotishga yuqorida keltirilgan sabablarni

tugallangan deb hisoblamaslik kerak. Ularga o'xshash sabablar ham farqlash qobiliyatini inkor qilishi mumkin (Sukhanov, 2023, p. 223). Jumladan, kuchli ta'sir qiluvchi dorilarga bog'liqlik, olgan yomon xabar natijasida shaxsning shok holatiga tushishi, epileptik tutilish kabilarni misol sifatida ta'kidlash mumkin.

Xulosa

Yuqoridagilardan kelib chiqib, "Fuqarolarning muomala layoqati" nomi bilan kiritish taklif qilinayotgan moddaning *ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi qismlari sifatida* quyidagi normalarni kiritish lozim:

Yoshining kichikligi, ruhiy kasalligi, aqli zaifligi, sarxushligi yoki shunga o'xshash ho-

latlar tufayli farqlash qobiliyatidan mahrum bo'lmagan har bir shaxs ushbu kodeksga muvofiq farqlash qobiliyatiga ega.

Farqlash qobiliyatiga ega va muomala layoqati cheklanmagan voyaga yetgan shaxs muomala layoqatiga ega.

Shaxs to'la muomala layoqatiga 18 yoshga to'lgach, nikoh va emansipatsiya asosida ega bo'ladi.

Yangi Fuqarolik kodeksida muomala layoqati, farqlash qobiliyati, to'la muomala layoqatiga ega shaxslar, muomala layoqati cheklangan shaxslar (qonun yo'li bilan va sud qarori asosida), muomalaga layoqatsiz shaxslar tavsiflarini aniq belgilab qo'yish maqsadga muvofiqdir.

REFERENCES

1. Antalya, O. G. (2015). *Medeni hukuk: Giriş, temel kavramlar, başlangıç hükümleri [Civil law: Introduction, basic concepts, starting provisions]*. Health and Social Assistance Foundation Publ.
2. Helvaci, S. (2013). *Gerçek kişiler [Natural persons]* (5th ed.). Arıkan Printing, Publishing and Distribution.
3. Karakhodzhaeva, D. (2025). *Vvedenie v grazhdanskoe pravo [Introduction to civil law]*. TSUL Publ.
4. Kiliçoğlu, A. M. (2022). *Medeni hukuk [Civil law]*. Turhan Book House Publ.
5. Mirziyoyev, Sh. M. (2022, December 20). *Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis and the people of Uzbekistan*. Official website of the President of the Republic of Uzbekistan. <https://president.uz/en/lists/view/5774>
6. Oğuzman, M. K., & Barlas, N. (2013). *Medeni hukuk: Giriş, kaynaklar, temel kavramlar [Civil law: Introduction, sources, basic concepts]*. Twelve Plates Publ.
7. Oğuzman, M. K., & Barlas, N. (2022). *Medeni hukuk: Giriş, kaynaklar, temel kavramlar [Civil law: Introduction, sources, basic concepts]* (28th ed.). Twelve Plates Publ.
8. President of the Republic of Uzbekistan. (2019, April 5). *On measures to improve the civil legislation of the Republic of Uzbekistan (Order No. F-5464)*. Lex.uz. <https://lex.uz/uz/docs/-4272621>
9. Rahmonqulov, H. R. (1997). *Fuqarolik huquqining umumiy qismiga tavsif va sharhlar [Description and commentaries on the general part of civil law]*. World of Economics and Law.
10. Republic of Turkey. (2001, November 22). *Türk medenî kanunu [Turkish civil code] (Law No. 4721)*. Lexpera Legal Information System.
11. Republic of Uzbekistan. (1997, December 21). *Civil code (Law No. 163-I)*. Lex.uz. <https://lex.uz/uz/docs/-111189>
12. Republic of Uzbekistan. (2020). *Fuqarolik kodeksi [Civil code]*. Yuridik Adabiyotlar Publ.
13. Schmid, J. (2001). *Einleitungsartikel des ZGB und Personenrecht [Introductory articles of the ZGB and law of persons]*. Schulthess Legal Media.
14. Sukhanov, E. A. (2023). *Grazhdanskoe pravo. [Civil law] (vol. I)*. Statut Publ.
15. Zokirov, I. (2006). *Fuqarolik huquqi [Civil law]*. TSIL Publ.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal
Правовой научно-практический журнал
Legal scientific-practical journal

2026-yil 1-son

VOLUME 10 / ISSUE 1 / 2026

DOI: [HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.ROLS.2025.10.1](https://dx.doi.org/10.51788/TSUL.ROLS.2025.10.1)